

## SAG'INBOY IBRAGIMOV SHERIYATIDA BEGONALIK MOTIVI

*Jienbaev Musa Azatbaevich,  
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti tayanch doktoranti  
[jienbaevmusa1998@gmail.com](mailto:jienbaevmusa1998@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada qoraqalpoq shoiri S.Ibragimov sheriyatida begonalik motivi, lirik qahramonning ichki kechinmalari muallif g'oyasi bilan bog'langan holda tasvirlanganligi, bugun eng dolzarb lirik motivlardan biri begonalikning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z etiladi.

**Kalit so'zlar:** begonalik motivi, jamiyat, ziddiyat, lirik qahramon, ichki kechinmalar, haqiqiy va ideal dunyo, zaman va makon.

## SAĞINBAY İBRAGİMOV'UN ŞİİRİNDE YABANCI MOTİVİ

*Jienbaev Musa Azatbaevich,  
Berdaq Karakalpak devlet üniversitesi tayan doktorant*

**Annotasyon.** Makale, Karakalpak şairi S.Ibragimov'un şiirlerinde yabancılık motifinin, lirik kahramanın içsel deneyimlerinin yazارın fikriyle bağlı olarak tasvir edildiği, bugün en acil lirik motiflerden biri olan yabancılığın kendine özgü özellikleri hakkında konusmaktadır.

**Anahtar kelimeler:** yabancılık motif, toplum, çatışma, lirik kahraman, içsel deneyimler, gerçek ve ideal dünya, zaman ve mekân.

## МОТИВ ОТЧУЖДЕНИЯ В ПОЭЗИИ САГИНБАЯ ИБРАГИМОВА

*Джиенбаев Муса Азатбаевич,  
докторант Каракалпакского государственного университета имени Бердаха*

**Аннотация.** В статье говорится о том, что в поэзии каракалпакского поэта С.Ибрагимова мотив отчуждения, внутренние переживания лирического героя изображены в связи с авторской идеей, а также об одной из самых актуальных лирических мотивов сегодняшнего дня - особенностях отчуждения.

**Ключевые слова:** мотив отчуждения, общество, конфликт, лирический герой, внутренние переживания, реальный и идеальный мир, время и пространство.

## MOTIVE OF FOREIGNNESS IN THE POETRY OF SAGINBAY IBRAGIMOV

*Jiyenbayev Musa Azatbayevich,  
basic doctoral student of Berdakh Karakalpak State University*

**Abstract:** The article discusses the motif of alienation in the poetry of the Karakalpak poet S. Ibragimov, the depiction of the inner experiences of the lyrical hero in connection with the author's idea, the peculiarities of alienation, which is one of the most relevant lyrical motifs today.

**Keywords:** motive of alienation, society, conflict, lyrical hero, inner experiences, real and ideal world, time and space.

Lirik asarlarda motivlar epik asarlardagi kabi harakatlarda emas, balki lirik qahramonning ichki keshinmalari, obrazlarning xarakterida namoyon bo'ladi. Begonalashish (otchujdeniya) motivi shaxs va u yashab turgan jamiyat orasida qarama-qarshilik boshlangan onlarda dunyoga keladi. Bu motivning belgilari aniq voqeа va hodisalarda emas, kichik detallar, ichki konflikt va ruxiy tushkinlikda ko'rindi. Bu bo'lsa shoirning qahramon holatini tasvirlashda yangicha obrazlarni

yaratishiga zamin yaratadi. Biz maqolamizda shoir S.Ibragimov ijodidagi ekzistensiyalistik motiv – begonalashish haqida so‘z etmoqchimiz. Shoir ijodidagi bunday o‘ziga xoslik haqida qoraqalpoq adabiyotida bir qancha fikrlar bildirilgan. 90-yillarda qoraqalpoq sheriyatida modern sheriyat haqida adabiyotshunos S.Axmetov, shoirlar M.Seytniyazov, J.Izbasqanov va S.Ibragimovlarning "Sheriyat haqida o‘ylar" [1] maqolasida S.Ibragimov ijodida modernizm haqida so‘z etilsa, adabiyotshunos va shoir B.Genjemuratov "Sheriyat – bu ilohiy dunyo" maqolasida: "Bu sher insonning tabiatidagi qayta tug‘ilish, shu qayta tug‘ilish olovga taqqoslanadi. Bu olov inson tabiyatidagi yomon xususiyatlarni yo‘q qiladi, yaxshi fazilatlarga keng yo‘l ochadi" [2. 123] – deya S.Ibragimov ijodidagi lirik qahramonga baho bergan edi. S.Ibragimovning bir qancha sherlarida begonalashish motivi mavjud. Masalan, "Saylanma sherlar" toplamiga kiritilgan "Ko‘ngil saroyingga sukunat kirdi...", "Ko‘m-ko‘k ufqqacha cho‘zilgan...", "O‘rtasida barcha tuyg‘ularimni", "Tungi ko‘chalarni kezib ketaman", "Bu ko‘chaning bari masqarabozlar", "Shunday chegaralar qo‘yilgan", "Men tosh bo‘lib quladim", "Men meteorit bo‘lib quladim" sherlarida shoir o‘zi yashab turgan jamiyat, makonga begonalashib borayotgan qahramonning ko‘ngil kechinmalarini badiiy obrazlar bilan tasvirlagan. "Men meteorit bo‘lib quladim" sheriga diqqat qaratsak:

*Men meteorit bo‘lib quladim*

*Tungus daryosining bo‘yiga –  
tirik jon sirimni ocha olmadi,  
o‘rnimda o‘rmonlar qoldi o‘rtangan.*

*va o‘yilib qoldi bir chaqirim yer  
(osmon mendan boshqa sazo bermadi...)*

*Men Atlantida bo‘lib ummonga cho‘kdime –  
ortimda afsonalar qoldi [3. 29].*

Lirik qahramon va jamiyat orasidagi ziddiyat sherda badiiy taqqoslash yordamida koinot darajasiga yetgan. Qahramon va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat yer va koinot predmeti o‘rtasidagi konfliktga taqqoslanadi. Lirik qahramon o‘zini begona sezib yurgan dunyoga, jamiyatga meteorit bo‘lib qarshi chiqadi. Meteorit ilim-fanda yer sayyorasining dushmani, yondiruvchi, yo‘q qiluvchi xususiyatga ega. Shoirning begonalashish motividan mohirona foydalanganligi atrofga, jamiyatga begona subyekti yer sayyorasiga begona koinot predmeti orqali qarchi qo‘yilishida namoyon bo‘ladi, meteoritning yonuvchi, yo‘q qiluvchi xususiyatida shoirning g‘oyasi, lirik qahramonning istaklari, g‘azabi jamlangan. Begonalashish dunyoni yo‘q qilish, uni yo‘ndirib qayta barpo etish fikri meteoritning xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Meteorit bo‘lib Tungus daryoss bo‘yiga qulagan qahramoni hech kim sezmaydi, ko‘rmaydi, u qulagan yerda qolgan izlar, yo‘ngan o‘rmonlar uning ko‘ngil kechinmalari va ruxiy holatidagi zarbalardan qolgan dartning obrazli tasvirlanishi deya baholash mumkin. Sher davomida lirik qahramon endi Atlantida bo‘lib ummonga chokib ketadi. Shoir dunyoga begonalashish motivini yana da kuchaytiradi. Endi lirik qahramon odamzot tarixidagi eng qadimiy afsonalarning biri Atlantidaga aylanib yer yuzidan yo‘qoladi. Shoir Atlantida taqqoslashi yordamida odamlar orasida turib ham yo‘qolib borayotgan, yurtning ko‘z o‘ngida begonalashib borayotgan lirik qahramonning kechinmalarini tasvirlaydi. Sher so‘ngida tamomam unutilib, begonalashib qolgan lirik qahramonning ayanchli tuyg‘ulari bilan qolgan sokin holati tasvirlanadi:

*Men yer bosib turib yo‘qoldim,  
Manglayida shamchirog ‘i borlar ichida –  
Bizni yo‘qlaganlar bo‘lmadi.*

*Nigohimdan  
Dunyoning surati o‘chti.  
Zulmatdan  
g‘ariblik ila boqardim yorug‘lik tamon [3.29].*

O‘zi yashab turgan jamiyat bilan, dunyo qarashlari, maqsadi va intilishlari zid kelgan insonning ruxiyatida, ongida konflikt kuchayib, endi jamiyat unga tor bo‘lib sezila beradi, uning niyat va takliflarini jamiyat bekorlasa, jamiyatning nizom va tartiblarini u qabul qila olmaydi. Inson ongidagi bunday kuchli konflikt begonalashish, beparvolik, cheklash tabiyatini paydo etadi. Endi har bir o‘tgan kun u uchun og‘ir va ziyoniga xizmat qila beradi. Oxirida u jamiyat ichidan yangi jamiyat, dunyo ichidan o‘zga dunyoni izlaydi, topishni istaydi. Lirik qahramon jamiyatga obyektiv jihatdan ham, subyektiv jihatdan ham qaram bo‘lishni xohlamaydi. Bu qaramlik lirik qahramon va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatni yana da kuchaytishga sabab bo‘ladi va lirik qahramonning dunyoni o‘zi uchun begona deya qabul qilishiga sabab bo‘ladi. Bu jarayonlarning hammasi lirik qahramonning ongida kundalik hayotdagi o‘ziga begona motivlarning (voqeja va hodisalar, detallar) va orzusidagi motivlarning ajiralib shiqishiga xizmat qiladi. Natijada shoir uchun: “Haqiqiy dunyo bixillik, yuzsizlik, tushkunlik, yorug‘lik/qorong‘ulik, cheklash, izolyatsiya, takrorlanish kabi motivlardan, ideal dunyo individuallik, erkinlik, jim-jitlik, yo‘l (harakat), aniqlik, oddiylik motivlaridan” [4.8] iborat bo‘lib qoladi.

Lirik qahramonning idealidagi dunyo bilan haqiqiy dunyoning farqining bir ko‘rinishi S.Ibragimovning “Ko‘k ufqqacha cho‘zilgan” qo‘srig‘ida aniq aksini topgan.

*Ko‘k ufqqacha cho‘zilgan  
bu to‘g‘ri va tekis yo‘l –*

*oltin olma  
tebrangan  
bog‘ga olib boradi.*

*Biroq bu yo‘l o‘tmaydi yerning yuzidan –  
nokoslarning ko‘zidan yiroq  
nur bo‘lib u sado beradi.*

*Yerning yuzi eshak olma to‘shagan  
bedlandlarga borar yo‘llarga to‘la* [3.33].

Sherda qahramonning idealidagi dunyoga va haqiqiy dunyoga nisbatan qarashlari, idealiga intilish tasvirlangan. Lirik qahramon oltin olmalar bog‘iga olib boradigan yo‘lni izlaydi, unga intiladi. Bu yo‘l uchun dunyodan kechib ketishga tayyor, yovuzliklardan, nopliliklardan yiroq u bog‘ga eltuvchi yo‘l badbaxt kimsalarga emas, faqat ko‘nglida yaxshilikga umidi bor, o‘zini qayta tarbiyalash yo‘lidagi insonlarga gina ko‘rinadi. Shoir lirik qahramon uchun begona yerni bedlandlarga eltuvchi yo‘llar bilan to‘lib ketgan makonga qiyoslaydi. Bedland (badland) inglizcha so‘z bo‘lib, bad – yomon, land – yer, yaniy o‘lik yer degan manoni anglatadi. Bu lirik qahramonning psixologiyasidagi salbiy taasurotlarning bir ko‘rinishi gina: “...Bunga parallel inson umrining umitsizligi va baxtsizlikning oqibati bo‘lgan izolyatsiya bilan cheklangan zamon va makon motivlari paydo bo‘ladi. Lirik qahramonning fikricha, odamlar haqiqatan harakat erkinligidan judo bo‘lgan va erk kuchidan putkillay ayrilgan yopiq zamon va makonda yashaydi. Umrining bunday mazmunsiz davomiyligi odamni beparvolik va umidsizlikga olib keladi [4.10].

Xulosa qilib aytganda, S.Ibragimov ijodida begonalashish motivi uning sheriyatidagi eng muhim motivlardan biri bo‘lib, u lirik qahramon va jamiyat, duno o‘rtasidagi ziddiyat, lirik qahramon ruxidagi har xil uyg‘onish va noroziliklar tufayli vujudga kelgan jarayonning natijasidir. Va shoirning g‘oyasi va poetik mahorati tufayli bunday motivlar bugungu zamonning aktual qahramonining psixologiyasidagi muhim va tashvishli holatni badiiy tasvirlashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ахметов С., Сейтниязов М., Избасқанов Ж., Ибрагимов С. Поэзия ҳаққында ойлар. 1990, «Әмиүдәръя», №11.
2. Генжемуратов Б. Поэзия – бул илахий дүнья. 1991, «Әмиүдәръя», №11. Б 123.
3. Ибрагимов С. Таңламалы қосықлар. 2016, Нөкис: «Билим», – Б. 29.
4. Тиботкина Н.А. Мотивная структура лирики Саши Черного. дисс. кан. фил. наук. автореферат. – 2010. Тверь, С 8.